

“NKMK” AJ Kuzatuv kengashining
2024 yil “7”iyundagi
4-son majlis bayonnomasiga
13-ilova

“NKMK” AJ Aksiyadorlari
yillik umumiy yig'ilishining
2024 yil “28” iyundagi
“3”-son bayonnomasi bilan
“TASDIQLANGAN”

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati
“Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida”gi

NIZOMI

MUNDARIJA

MUNDARIJA.....	2
I. Umumiy qoidalar	3
II. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasi.....	3
III. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaror qabul qilish tartibi	4
IV. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish tartibi.....	4
V. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish	6
VI. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga takliflar	7
VII. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish tartibi	8
VIII. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kvorumi.....	10
IX. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ishchi organlari	10
X. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini olib borish tartibi	13
XI. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasi.....	14
XII. Axborotni oshkor etish.....	15
XIII. Yakuniy qoidalar	15
<i>1-ilova</i>	16
<i>2-ilova</i>	17
<i>3-ilova</i>	18
<i>4-ilova</i>	19
<i>4-a-ilova</i>	20
<i>5-ilova</i>	21
<i>6-ilova</i>	22
<i>7-ilova</i>	23

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda – Jamiyat, “NKMK” AJ) aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi to'g'risida”gi Nizom (keyingi o'rinlarda - Nizom) O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonuni (keyingi o'rinlarda – Qonun), Korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalari, boshqa qonun hujjatlari va “NKMK” AJ Ustavi (keyingi o'rinlarda - Ustav) asosida ishlab chiqilgan.
2. Ushbu Nizom Jamiyat aksiyadorlari Umumiy yig'ilishining maqomi, vakolat doirasi, tayyorlash tartibi va muddati, uni chaqirish va o'tkazishni belgilab beradi.
3. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi. Jamiyatning, uning boshqaruv organlarining va mansabdor shaxslarining aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazishdagi asosiy vazifalaridan biri aksiyadorlarning yig'ilish ishida ishtirok etishi munosabati bilan ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilinishini ta'minlash, aksiyadorlarga Jamiyat to'g'risida o'z vaqtida ishonchli va to'liq axborot, shu jumladan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibidagi, hajmi amaldagi qonun hujjatlari va ushbu Nizom bilan belgilanadigan barcha masalalar bo'yicha axborot taqdim etish hisoblanadi.
4. Aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari barcha aksiyadorlarga ularning ulushi, daromad darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, bir xil munosabatni ta'minlaydi.
5. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi (aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishi)ni o'tkazishi shart.
6. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin 6 (olti) oydan kechiktirmay o'tkaziladi.
7. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.
8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

II. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasi

9. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasi Jamiyat Ustavi bilan belgilanadi.
10. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyat Kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.
11. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyat Ijro organiga hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.
12. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida quyidagi masalalar majburiy tartibda ko'rib chiqiladi:
- Boshqaruvning Jamiyatning o'tgan yil yakunlariga ko'ra moliya-xo'jalik faoliyati va Jamiyatning yillik (qisqa muddatli) biznes-rejasining bajarilishi to'g'risidagi hisoboti;
 - Jamiyat Boshqaruvining va Kuzatuv kengashining Jamiyatni o'rta muddatli va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha hisobotlari;
 - Jamiyat tashqi auditorining xulosasini tasdiqlash;
 - Jamiyatning yillik hisobotini tasdiqlash;
 - Jamiyatning foyda va zararlarini taqsimlash;
 - zarur hollarda, qonun hujjatlariga yoki Jamiyat Ustaviga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiritilgan boshqa masalalar.
13. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Kuzatuv kengashi raisi va a'zolari, Boshqaruv raisi - Bosh direktor va Boshqaruvning qolgan a'zolari, ichki audit xizmati boshlig'i, Komplayens xizmati boshlig'i Jamiyat tashqi auditorining vakili hamda Umumiy yig'ilishda ko'rib chiqiladigan masalalarga to'g'ridan-to'g'ri aloqador boshqa shaxslar ishtirok etishi mumkin.
14. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha byulletenlarga nomzodlari kiritilgan shaxslar ham ishtirok etishlari mumkin.
15. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi Jamiyatning mansabdor shaxslariga Korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga rioya etmaganlik uchun javobgarlik chorasini qo'llashga haqli.

III. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaror qabul qilish tartibi

16. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori, agar Qonunda, Jamiyat Ustavida va ushbu Nizomda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.
17. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas. Agar biror bir sababga ko'ra Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan masala bo'yicha qaror qabul qilinmasa, u holda ushbu masalani ko'rib chiqmaslik to'g'risida qaror qabul qilinadi.

IV. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish tartibi

18. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 3 (uch) ish kuni oldin shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

19. Jamiyat aksiyadorlarining reestriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi, mazkur reestr shakllantirilgan sanada unga kiritilmay qolgan shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan yoki reestrni shakllantirishda yo'l qo'yilgan xatolar tuzatilgan hollar bundan mustasno.
20. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi.
21. Aksiyador Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.
22. Aksiyadorning vakili Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan yeri, pasportiga yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasiga oid ma'lumotlar) bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlangan holda beriladi (1,2-ilovalar).
23. Jamiyat aksiyalari ishonchli boshqaruvga berilgan hollarda, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish vakolatlari ishonchli boshqaruv shartnomasi va ishonchnoma asosida investisiyaviy aktivlarni ishonchli boshqaruvchining vakili tomonidan amalga oshiriladi.
24. Agar Jamiyatning aksiyasi bir nechta shaxsning umumiy ulushli mulkida bo'lsa, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish vakolatlari ularning xohishiga ko'ra umumiy ulushli mulk ishtirokchilaridan biri yoki ularning umumiy vakili tomonidan amalga oshiriladi. Ko'rsatib o'tilgan har bir shaxsning vakolatlari tegishli tarzda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.
25. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashish uchun aksiyadorlar yoki ularning vakolatli vakillari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatilgan joy va vaqt bo'yicha ro'yxatdan o'tishlari zarur.
26. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashish uchun kelgan jismoniy shaxslar bo'lgan aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish pasport yoki aksiyadorning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat ko'rsatilgach, vakilga 22-bandda belgilangan tartibga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma ko'rsatilgach, amalga oshiriladi.
27. Jamiyat aksiyadori bo'lgan yuridik shaxs rahbari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakolatlarini lavozimga tayinlash to'g'risidagi buyruq, hamda shaxsni tasdiqlovchi hujjat asosida amalga oshiradi.
28. Aksiyador yuridik shaxsning vakili Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tashkilot rahbarining imzosi bilan yoki bunga ta'sis hujjatlari bilan vakil qilingan boshqa shaxsning imzosi chekilgan, ushbu tashkilotning muhri bilan tasdiqlangan uning nomiga berilgan ishonchnoma mavjud bo'lgan taqdirda qatnashishi mumkin.
29. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga ega aksiyadorlarni ro'yxatga olish uchun qayd etish ro'yxati tuziladi (3-ilova).
30. Qayd etish ro'yxati bir varaqdan ko'p bo'lgan hollarida esa tartib raqami qo'yilgan, ip o'tkazib tikilgan va Jamiyat muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.
31. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishda aksiyadorlar (ularning vakillari) qayd etish ro'yxatiga imzo chekadilar va byulletenlar to'plamini oladilar (4,4a-ilovalar). Aksiyadorlarning

umumiy yig'ilishi axborot-kommunikasiyalari orqali aksiyadorlar tomonidan masofadan turib ishtirok etgan tarzda o'tkazilganda hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayoni elektron rasmiylashtirilganda aksiyadorlar yoki ularning vakillari elektron tizim orqali ro'yxatdan o'tadilar.

32. Agar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qatnashchisi bir yoki bir necha aksiyadorning manfaatlarini ifodalashga ishonchnoma taqdim etsa, u holda unga u ifodalayotgan aksiyador (aksiyadorlar) uchun ovoz berishga byulleten beriladi, qayd etish ro'yxatida esa u ifodalayotgan aksiyadorning familiyasi qarshisiga “ ta (soni) ovoz beruvchi aksiyalar bo'yicha “ ” da berilgan ishonchnoma bo'yicha” degan yozuv qayd etiladi hamda vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatiladi.

33. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega shaxs (shu jumladan, ovoz berish uchun ishonchnoma asosida harakat qilayotgan yangi vakil) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazilishi lozim va unga agar vakilni almashtirish (chaqirib olish) to'g'risidagi bildirishnoma vakolatlari tugatilayotgan vakil ro'yxatdan o'tkazilganga qadar Jamiyat yoki Sanoq komissiyasi tomonidan olingan bo'lsa, ovoz berish byulletenlari berilishi zarur.

34. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida shaxsan ishtirok eta olishi mumkin bo'lmagan aksiyadorlar uchun Jamiyat elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash vositasida) ovoz berish, shuningdek umumiy yig'ilishni videokonferens-aloqa rejimida o'tkazish yo'li bilan – umumiy yig'ilishda masofaviy qatnashish imkoniyatini taqdim etadi va shunga sharoit yaratib beradi.

35. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etgan aksiyador (uning vakili) o'z hisobidan u to'ldirgan byulleten nusxasini berilishini talab qilishga haqli.

- Byulleten nusxasi Jamiyat Sanoq komissiyasining raisi imzosi bilan tasdiqlanadi.

V. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish

36. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilyotganda Jamiyatning Kuzatuv kengashi yoki Qonunga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish huquqiga ega shaxslar quyidagilarni belgilaydi:

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni; Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibini;
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestri shakllantiriladigan sanani;
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestri shakllantiriladigan sanani;
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar qilish tartibini;
- umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilyotganda aksiyadorlarga taqdim etiladigan axborot (materiallar) ro'yxatini;
- ovoz berish byulletenining shakli va matnini.

37. Aniq masala qo'yilishini aks ettirmaydigan ta'riflarning (shu jumladan, “turli masalalar”, “boshqa masalalar”, “o'zga masalalar” va shu singari ta'riflarning) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

38. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 21 (yigirma bir) kundan kam va 30 (o'ttiz) kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

39. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 21 (yigirma bir) kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan 30 (o'ttiz) kun oldin Jamiyatning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek, aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi (5-ilova).

40. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- a) Jamiyatning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;
- b) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;
- v) Jamiyat aksiyadorlarining reestri shakllantiriladigan sana;
- g) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan masalalar;
- d) umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi;
- ye) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish, shu jumladan axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibi.

41. Axborot (materiallar) aksiyadorlarga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishidan oldin 7 (yetti) kalendar kunidan kechiktirmay, elektron pochta orqali yuborish yo'li bilan taqdim etiladi.

VI. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga takliflar

42. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda jamiyatning kuzatuv kengashiga ushbu kengashning son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli, bundan kuzatuv kengashining mustaqil a'ziligiga nomzodlar ko'rsatish mustasno.

43. Nizomning 42-bandida belgilangan muddatda aksiyadorlar tomonidan Jamiyat Kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatish to'g'risidagi takliflar kelib tushmagan taqdirda, Kuzatuv kengashi mustaqil ravishda Jamiyat Kuzatuv kengashiga nomzodlar ro'yxatini belgilashga haqli.

44. Aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyat Kuzatuv kengashiga o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay o'zgartirishlar kiritishga haqli. Bunda Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabarni qayta e'lon qilish talab etilmaydi. Bunday hollarda nomzodlar tarkibiga o'zgartirish kiritish Kuzatuv kengashining ovoz berish byulleteni tasdiqlanadigan qarori bilan amalga oshiriladi.

45. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyadorning) ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi (6- ilova).

46. Jamiyat Kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatish to'g'risida takliflar kiritilganda, shu jumladan o'zini o'zi nomzod qilib ko'rsatilgan taqdirda nomzodning ismi-sharifi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (agar nomzod jamiyat aksiyadori bo'lsa), shuningdek nomzodni ko'rsatayotgan aksiyadorlarning ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

47. Jamiyat Kuzatuv kengashi tushgan takliflarni ko'rib chiqishi hamda ushbu Nizomning 42-bandida belgilangan muddat tugaganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay ularni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish to'g'risida yoki mazkur kun tartibiga kiritishni rad etish haqida qaror qabul qilishi shart. Aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan kiritilgan masala Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga, xuddi shuningdek ko'rsatilgan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi kerak, quyidagi hollar bundan mustasno:

- a) ushbu Nizomning 42-bandida belgilangan muddatga aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan rioya etilmagan bo'lsa;
- b) aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning ushbu Nizomning 42-bandida nazarda tutilgan miqdordagi ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;
- v) ushbu Nizomning 45-bandida nazarda tutilgan ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;
- g) takliflar qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo'lmasa.

48. Jamiyat Kuzatuv kengashining masalani Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarori masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorlarga (aksiyadorga) qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

49. Jamiyat Kuzatuv kengashining masalani Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

VII. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish tartibi

50. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra:

- a) uning o'z tashabbusi asosida;
- b) yozma talab taqdim etilgan sanada Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi.

51. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

52. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar ularni kiritish sabablari ko'rsatilgan holda ta'riflangan bo'lishi kerak (7-ilova).

53. Jamiyat Kuzatuv kengashi Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra chaqiriladigan Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas.

54. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadordan (aksiyadorlardan) chiqqan taqdirda, bu talabda umumiy yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) ismi-sharifi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni, turi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

55. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.

56. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida talab taqdim etgan sanadan e'tiboran 10 (o'n) kun ichida Jamiyat Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak.

57. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin, agar:

- a) Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qilmasa;
- b) kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan birortasi ham Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kirmasa;
- v) kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala Qonun talablariga muvofiq bo'lmasa.

58. Jamiyat Kuzatuv kengashining Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi qarori yoki bunday yig'ilishni chaqirishni rad etish haqidagi asoslantirilgan qarori yig'ilish chaqirishni talab qilgan shaxslarga qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

59. Jamiyat Kuzatuv kengashining Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

60. Jamiyat Kuzatuv kengashi 10 (o'n) kun muddat ichida Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilmagan taqdirda yoki uni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin. Bunday hollarda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Jamiyatning mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

61. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Qonunga muvofiq shunday huquqqa ega aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan chaqirilayotgan taqdirda, aksiyador (aksiyadorlar) o'z qarorini yozma shaklda rasmiylashtiradi. Qarorda aksiyadorning (aksiyadorlarning) nomi (F.I.Sh.), aksiyadorning vakolatli mansabdor shaxsi (yuridik shaxslar uchun), aksiyadorga tegishli ovoz beruvchi aksiyalarning soni ko'rsatilishi zarur. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi qaror qabul qilingan taqdirda, ushbu Nizomning 36-bandida ko'rsatilgan masalalar belgilanadi. Bunday hollarda Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy

yig'ilishini chaqirish aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan ushbu Nizomning V bo'limida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda:

- a) Jamiyatning rasmiy veb-saytida Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarni joylashtirish Boshqaruv tomonidan aksiyador (aksiyadorlar)ning xabar joylashtirish to'g'risidagi yozma talabi asosida amalga oshiriladi;
- b) Jamiyat aksiyalari egalari reestrini shakllantirish topshiriqnomasi Qimmatli qog'ozlarning Markaziy depozitariysida bevosita aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar (depo hisobvarag'ining ko'chirmasi, aksiyadorning yoki uning vakilining pasport nusxasi, Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi yozma talabning olinganligi to'g'risida qayd qilingan nusxasi, mavjud bo'lgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori nusxasi, yoki Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi xat) taqdim etilgan holda rasmiylashtiriladi.

VIII. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kvorumi

62. Agar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 50 (ellik) foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

63. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

64. Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 40 (qirq) foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

65. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabar qilish ushbu Nizomning 39-bandida nazarda tutilgan muddatlarda va shaklda amalga oshiriladi.

66. Kvorum bo'lmaganligi sababli Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi 20 (yigirma) kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestriga muvofiq aniqlanadi.

IX. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ishchi organlari

67. Umumiy yig'ilishning ishchi organlarini tuzishdan asosiy maqsad – aksiyadorlarning yig'ilishdagi ishtiroki, uni o'tkazish jarayonida, kun tartibidagi masalalarning muhokamasi va ular bo'yicha ovoz berishdagi o'z huquqlarini amalga oshirilishini ta'minlashdan iborat.

68. Quyidagilar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ishchi organlari hisoblanadi: Rais va yig'ilish kotibi, Sanoq komissiyasi.

69. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri yoki yig'ilishni chaqirgan shaxs olib boradi.

70. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi raisi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga boshchilik qiladi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini ochiq deb va uning ishini tugaganligini e'lon qiladi, yig'ilish olib borilishini ta'minlaydi va buning uchun u o'z vazifalarini zarur tartibda bajarilishi uchun zarur bo'lgan barcha vakolatlarga ega bo'ladi.

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi raisi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini audio va videoga yozib olinishini va internet tarmog'ida translyasiya qilinishiga ruxsat berishi mumkin.

71. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi raisi yig'ilishning borishiga rahbarlik qiladi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ishchi organlari ishini muvofiqlashtiradi, masalalarni muhokama qilish tartibini belgilaydi, ma'ruzachilarning nutqlari vaqtini chegaralaydi, yig'ilishni olib borish va ovoz berish davomida tushuntirishlar beradi, zalda tartib o'rnatilishini nazorat qiladi.

72. Ovozlarini sanab chiqish, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

73. Sanoq komissiyasining tarkibi kamida 3 (uch) kishidan iborat bo'lishi kerak. Sanoq komissiyasi tarkibiga Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari, Jamiyat Boshqaruvi a'zolari, shuningdek ana shu lavozimlarga nomzodi ko'rsatilgan shaxslar kirishi mumkin emas.

74. Sanoq komissiyasiga amaliy ko'mak ko'rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlar (investisiya maslahatchisi va qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchilari) jalb etilishi mumkin.

- Jamiyatning sanoq komissiyasiga amaliy ko'mak ko'rsatish uchun mustaqil ekspert jalb etilgan taqdirda, Jamiyat Bosh direktori qaror qabul qiladi.
- Jamiyatning sanoq komissiyasining bevosita funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspert jalb etilgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashi qaror qabul qiladi.
- Jamiyat mustaqil ekspert bilan, shartnoma bilan unga yuklatilgan majburiyatlarni zarur darajada bajarmaganlik uchun mustaqil ekspertning javobgarligi ko'zda tutilgan tegishli shartnoma tuzadi.

75. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish “Jamiyatning ovoz beruvchi bitta aksiyasi - bitta ovoz” prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi, Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish hollari bundan mustasno.

76. Ovoz berishda ovoz beruvchi tomonidan “yoqlayman”, “qarshiman” yoki “betarafman” degan mazmundagi so'zlar bilan ifodalangan ovoz berish variantlarining faqat bittasi ko'rsatilgan masalalar bo'yicha ovozlar hisobga olinadi (bundan ovoz berishga qo'yilgan masalaga “yoqlayman” degan mazmundagi so'z bilan ifodalanadigan kumulyativ ovoz berish mustasno).

- Mazkur talabni buzgan holda to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas deb topiladi va ulardagi masalalar bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi.

77. Agar ovoz berish byulletenida ovozga qo'yilgan bir nechta masala ko'rsatilgan bo'lsa, bir yoki bir nechta masalaga nisbatan ushbu Nizomning 76-bandida ko'rsatilgan talabga rioya etilmaganligi byulletenning umuman haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'lmaydi.

- Aksiyador Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida masofadan turib qatnashgan taqdirda, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron byulletenlar Jamiyat elektron pochtasining rasmiy manziliga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tugagunga qadar yuborilishi zarur.

78. Sanoq komissiyasi vakolatlarining muddati u Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylangan paytdan boshlab aksiyadorlarning tegishli yig'ilishi (yillik yoki navbatdan tashqari) tomonidan sanoq komissiyasining yangi tarkibi saylanishi (yoki qayta saylanishi) paytigacha hisoblanadi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazish paytida Sanoq komissiyasining bir yoki bir necha a'zosi hozir bo'lmaganligi hollarida, Jamiyat Kuzatuv kengashi Sanoq komissiyasi tarkibiga yangi a'zo nomzodini kiritadi yoki Aksiyadorlarning tegishli (yillik yoki navbatdan tashqari) umumiy yig'ilishi tomonidan keyinchalik tasdiqlash yo'li bilan Sanoq komissiyasini tuzadi.

79. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish paytida Sanoq komissiyasi Kuzatuv kengashining (yoki yig'ilishni chaqirayotgan shaxslarning) topshirig'iga ko'ra quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- a) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarni qayd etish ro'yxatini tuzadi;
- b) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish byulletenlarini tayyorlaydi.

80. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida Sanoq komissiyasi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- a) Umumiy yig'ilishda qatnashish uchun aksiyadorlarni (ularning vakillarini) ro'yxatdan o'tkazadi;
- b) ishonchnomalar va ular tomonidan beriladigan huquqlar hisobini yuritadi;
- v) ovoz berish byulletenlarini beradi va berilgan byulletenlarning hisobini yuritadi, shuningdek aksiyadorlarga Umumiy yig'ilishning boshqa axborot (materiallar)ini beradi.

81. Sanoq komissiyasi:

- a) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kворum bor yoki yo'qligini aniqlaydi;
- b) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqlarining aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalarni tushuntiradi;
- v) ovozga qo'yiladigan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi;
- g) ovoz berishning belgilangan tartibi va aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqlarini ta'minlaydi;
- d) ovozlarni sanab chiqadi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi;
- ye) ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi;
- j) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashgan shaxsning to'ldirilgan byulleteni nusxasini tasdiqlaydi;
- z) ovoz berish byulletenlarini Jamiyatning arxiviga topshiradi.

82. Jamiyat Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Kotibi nomzodini ko'rsatadi.

83. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Kotibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

84. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Kotibi:

- a) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining borishi bayonini yuritadi;
- b) yozma buyurtmalar bo'yicha yig'ilish kun tartibidagi masalalar muhokamasida qatnashish istagini bildiruvchilar ro'yxatini olib boradi;
- v) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasini 10 (o'n) kundan kechiktirmay 2 (ikki) nusxada tuzadi.

X. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini olib borish tartibi

85. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ishtirokchilarini ro'yxatga olish yakunlangandan keyin Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi (u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri yoki yig'ilishni chaqirgan shaxs) Sanoq komissiyasiga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashish uchun kelgan aksiyadorlarni (ularning vakillarini) ro'yxatga olish natijalarini ma'lum qilishni taklif etadi.

- Yig'ilish kворumga ega bo'lgan holda, Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi (u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri yoki yig'ilishni chaqirgan shaxs) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini ochiq deb e'lon qiladi.

86. Aksiyadorlarning har bir umumiy yig'ilishida ovoz berish tartibi tasdiqlanadi.

- Ovoz berish tartibini va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini olib borish tartibi (reglamenti)ni tasdiqlash, umumiy yig'ilishning ishchi organlari – Rais va yig'ilish kotibini va Sanoq komissiyasini saylash qo'l ko'tarish (ochiq ovoz berish) orqali amalga oshiriladi. Kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish byulletenlar (yashirin ovoz berish) orqali amalga oshiriladi.

87. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini olib borish tartibi (reglamenti) Aksiyadorlarning har bir umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi.

88. Umumiy yig'ilishni olib borish tartibi (reglamenti) yig'ilishning boshlanishi va taxminan tamom bo'lishi vaqtini, ma'ruzalar, muhokamalar va tanaffuslar qancha davom etishi, kun tartibidagi masalalarining davomiyligini, kun tartibi masalalari bo'yicha ma'ruzachilarning familiyalari va lavozimlarini, ovoz berishni amalga oshirish va uning natijalarini e'lon qilish tartibini nazarda tutadi.

89. Yig'ilish davomida yuzaga keluvchi masalalarni yig'ilish raisi muhokama qilinayotgan masala bo'yicha Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida bosh tamoyildan: har bir qatnashchining belgilangan vaqt doirasida so'zga chiqish huquqidan foydalanishi mumkinligidan kelib chiqib, yakkaboshchilik bilan hal etadi.

90. Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda qatnashish istagini bildirganlar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kotibiga muhokama qilinadigan masalani ko'rsatgan holda yozma buyurtma beradilar.

91. Kuzatuv kengashi raisi (u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri yoki yig'ilishni chaqirgan shaxs) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining Rais va Kotibni saylashni va Sanoq komissiyasining soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlashni taklif etadi.

92. Ishchi organlar saylangandan keyin yig'ilish Raisi yig'ilish kun tartibini e'lon qiladi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalar bo'yicha ma'ruzachilarni eshitadi va aksiyadorlar (ularning vakillari) masalalar muhokamasida ishtirok etishadi.

93. Kun tartibining barcha masalalari ko'rib chiqilgandan, qarorlar qabul qilingandan keyin Sanoq komissiyasi a'zolari byulletenlarni yig'ishadi va ovoz berish natijalarini hisobga olishni amalga oshirishadi.

94. Ovoz berish natijalari yakunlangandan keyin Sanoq komissiyasi ovoz berish natijalarini va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibidagi har bir masala bo'yicha qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi.

95. Sanoq komissiyasi ovoz berish natijalarini va qabul qilingan qarorlarni ma'lum qilgandan keyin yig'ilish Raisi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini yopiq deb e'lon qiladi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi axborot-kommunikatsiyalari orqali aksiyadorlar tomonidan masofadan turib ishtirok etgan tarzda o'tkazilganda hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayoni elektron rasmiylashtirilganda Sanoq komissiyasining barcha hujjatlari elektron shaklda rasmiylashtiriladi.

XI. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasi

96. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;
- Umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;
- Umumiy yig'ilishning raisi va kotibi;
- yig'ilish kun tartibi;
- ma'ruzalarning asosiy mazmuni, ovozga qo'yilgan masalalar, ovoz berish yakunlari va yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatiladi.

97. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin 10 (o'n) kundan kechiktirmay 2 (ikki) nusxada tuziladi. Har ikki nusxa umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi elektron shaklda rasmiylashtirishi mumkin. Maxfiy hamda konfidensial xarakterdagi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi yoki yagona aksiyador qarorlari uchun alohida tartib raqami yuritilishi mumkin.

98. Sanoq komissiyasining bayonnomasi yig'ilishning maxsus qarori bilan tasdiqlanmaydi, balki ma'lumot uchun qabul qilinadi hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasiga tikib qo'yilishi zarur.

99. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasi imzolanganidan keyin Sanoq komissiyasi yig'ilish hujjatlarini, shu jumladan Umumiy yig'ilishning qayd etish ro'yxatini, Sanoq komissiyasi a'zolari tomonidan imzolangan va muhurlangan ovoz berish byulletenlarini, ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnomalarni va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasini saqlash uchun Jamiyat arxiviga topshiradi.

100. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyat Ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi.

101. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari Qonunda nazarda tutilgan tartib va muddatlarda aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

102. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasi elektron tartibda yuritilishi hamda aksiyadorlar tomonidan ko'rib chiqiladigan masalalar yuzasidan ovoz berish axborot – kommunikasiya vositalari orqali elektron tartibda amalga oshirilishi mumkin. Bunda, ovoz berish byulletenlari ham elektron tartibda imzolanadi.

XII. Axborotni oshkor etish

103. Jamiyatning korporativ saytida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi axborot joylashtiriladi, shu jumladan:

- a) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari;
- v) muhim faktlar;
- g) qonun hujjatlari talablariga muvofiq boshqa axborotlar.

XIII. Yakuniy qoidalar

104. Jamiyat Boshqaruvi va Kuzatuv kengashi o'z vakolatlari doirasidagi masalalar bo'yicha Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlarni bajarishni tashkil qiladi, Umumiy yig'ilish qarori va bayonnomasida o'zgacha holat qayd etilganligi hollari bundan mustasno.

105. Jamiyat Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

106. Ushbu Nizomning talablarini buzgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

107. Ushbu Nizom Jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ushbu Nizomni tasdiqlash bo'yicha qarori umumiy yig'ilishda hozir bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

108. Ushbu Nizomga qonun hujjatlari o'zgartirilganligi, Jamiyat Ustaviga, Jamiyatning ichki hujjatlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritilganligi munosabati bilan va boshqa hollarda o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Ushbu Nizomga kiritilgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining umumiy yig'ilishda hozir bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan qaroriga asosan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

109. Agar ushbu Nizomning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va/yoki Jamiyat Ustaviga zid kelgan taqdirda, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi hamda ushbu Nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar, bu bandlar orqali tartibga solinadigan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va/yoki Jamiyat Ustavi me'yorlari qo'llaniladi.

ISHONCHNOMA

Men,

“NKMK” AJning _____ ta oddiy aksiyalariga (va _____ ta imtiyozli aksiyalariga egallik qiluvchi) menga tegishli barcha aksiyalar bilan ovoz berishda aksiyadorlar yig'ilishida mening manfaatlarimni ifodalash uchun _____ ga ishonch bildiraman.

Mening manzirim:	Vakilning manzili:
Pasport	Pasport
seriya N _____	seriya N _____
berilgan _____	berilgan _____

Ishonchnoma _____ yildan _____ yilgacha haqiqiydir.

Aksiyadorning imzosi _____

Sana _____

Aksiyadorning shaxsiy imzosini tasdiqlayman.

Notarius

Imzo _____	Sana _____
------------	------------

M.O'.

ISHONCHNOMA

Men,

“NKMK” AJning aksiyadori hisoblanuvchi, _____ ta oddiy aksiyaga (va _____ ta imtiyozli aksiyaga) egallik qiluvchi _____ ning rahbari (direktori, raisi) _____ (yuridik shaxsning nomi) _____ fuqaro _____ ga aksiyadorlar yig'ilishida barcha tegishli aksiyalar bilan _____ ning (yuridik shaxs nomi) manfaatlarini ifodalashga ishonch bildiraman.

Aksiyadorning manzili:	Vakilning manzili:
------------------------	--------------------

Bank rekvizitlari:

Pasport seriya N _____

_____ yildan _____ yilgacha amal qiladi.

Rahbarning imzosi _____	Sana _____
-------------------------	------------

M.O'.

“NKMK” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining 20__ yilda o'tkaziladigan navbatdagi (navbatdan tashqari) Umumiy yig'ilishining

QAYD ETISH RO'YXATI

№	Aksiyador familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi)	Ovoz beruvchi aksiyalar soni	Aksiyador imzosi	Vakil familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi)	Ishonchnoma raqami	Ishonchnoma berilgan sana	Ovoz beruvchi aksiyalar soni	Vakil imzosi
1	2	3	4	5	6	7	8	9

(5–9-ustunlar faqat vakil mavjud bo'lganda to'ldiriladi)

Umumiy miqdori _____ dona ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi Umumiy yig'ilishning barcha ro'yxatdan o'tkazilgan qatnashchilari _____ kishi.

Kvorum mavjudligi (ovoz beruvchi aksiyalarning umumiy sonidan foizlarda) _____%.

Sanoq komissiyasi a'zolari:

F.I.Sh. _____ (imzo)

F.I.Sh. _____ (imzo)

F.I.Sh. _____ (imzo)

“NKMK” AJ aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining 20__ yil __ kuni soat __:__ o'tkaziladigan (yig'ilish o'tkazilayotgan manzil) navbatdagi (navbatdan tashqari) Umumiy yig'ilishida __ dona ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi _____ ning (yuridik shaxs aksiyadorning to'liq nomi / jismoniy shaxs aksiyadorning F.I.Sh.)

*-sonli ovoz berish

BYULLETENI

№	Kun tartibidagi masalaning ta'rifi	Yoqlayman	Qarshiman	Betarafman
1.				
2.				
3.				

Familiyasi, ismi va sharifi _____ (imzo)

* Qayd etish ro'yxati bo'yicha aksiyadorning raqami ko'rsatiladi.

“NKMK” AJ aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining 20__ yil __ kuni soat __:__ o'tkaziladigan (yig'ilish o'tkazilayotgan manzil) navbatdagi (navbatdan tashqari) Umumiy yig'ilishida __ dona ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi _____ ning (yuridik shaxs aksiyadorning to'liq nomi / jismoniy shaxs aksiyadorning F.I.Sh.) Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berish uchun

*-sonli

BYULLETENI

“NKMK” AJ Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash NOMZODLAR:

№ t/r	Nomzod to'g'risida ma'lumot (Familiyasi, ismi va sharifi)	“Yoqlayman” — Kuzatuv kengashi a'zorigiga nomzodlarga berilgan ovozlar soni ko'rsatiladi
1.		
2.		
3.		

Izoh: har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

“NKMK” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining yillik (navbatdan tashqari) umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida

XABARNOMA

Hurmatli _____,

_____ manzilida joylashgan, “NKMK” aksiyadorlik jamiyati, telefon: _____, Sizga 20__ yil __ kuni soat __:__ minutda _____ jamiyatimiz aksiyadorlarining yillik (navbatdan tashqari) yig'ilishi bo'lishi haqida ma'lum qiladi.

Yillik (navbatdan tashqari) umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar ro'yxati 20__ yil “__” _____ holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestriga asosan tuziladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 20__ yil “_____” _____ kuni soat __:__ minutda boshlanib soat __:__ minutgacha davom etadi.

Sizga yillik (navbatdan tashqari) umumiy yig'ilish kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilganligini ma'lum qilamiz:

- 1.
- 2.
- 3.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishiga tayyorgarlik ko'rish davrida Siz aksiyadorlar umumiy yig'ilishining quyidagi materiallari bilan tanishishingiz mumkin:

- 4.
- 5.
- 6.

Umumiy yig'ilishda qatnashish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma (jismoniy shaxslar uchun – notarial tasdiqlangan, yuridik shaxslar uchun – ushbu yuridik shaxs tomonidan berilgan) bilan kelishlari so'raladi.

“NKMK” Kuzatuv kengashi.

“NKMK” AJ

Aksiyador _____ ning Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalani kiritish to'g'risidagi

TAKLIFI

Egalik qilayotgan aksiyalar soni: oddiy _____ dona.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritilishi lozim bo'lgan masalaning ta'rifi (uni qo'yish sabablarini ko'rsatgan holda):

Kuzatuv kengashi a'ziligiga kiritilayotgan nomzodlar (F.I.Sh, ish joyi, lavozimi, nomzodga tegishli tiplariga ajratgan holda AJ aksiyalari soni):

Ijroiya organ a'ziligiga kiritilayotgan nomzodlar (F.I.Sh, ish joyi, lavozimi, nomzodga tegishli tiplariga ajratgan holda AJ aksiyalari soni):

F.I.Sh. _____ (imzo, sana)

“NKMK” AJ

Aksiyador _____ ning aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish haqidagi

TALABI

Navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilayotgan shaxs F.I.Sh. (nomi):

Egalik qilayotgan aksiyalar soni (aksiyador tomonidan talab kiritilgan taqdirda to'ldiriladi): oddiy _____ dona.

Talabning mazmuni (aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig'ilishi chaqirilishining sababi ta'rifi):

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritilishi lozim bo'lgan masalaning ta'rifi (uni qo'yish sabablarini ko'rsatgan holda):

Kuzatuv kengashi a'zoliciga kiritilayotgan nomzodlar (F.I.Sh, ish joyi, lavozimi, nomzodga tegishli tiplariga ajratgan holda AJ aksiyalari soni):

F.I.Sh. _____ (imzo, sana)